

## SIFATLI TAЪLIM-DAVR TALABI

N.N. Nazarov

f.f.n., dotsent

O‘zDJTSU ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi boshlig‘i

### ABSTRACT

The article emphasizes the fact that improving the quality of education is the imperative of the times, and it is necessary to use modern methods to train mature staff of higher educational institutions.

**Keywords:** Education, love for the Motherland, higher education, qualified personnel, students, youth, person, society, future.

### АННОТАЦИЯ

В статье подчеркивается тот факт, что повышение качества образования является велением времени, и необходимо использовать современные методы для подготовки зрелых кадров высших учебных заведений.

**Ключевые слова:** Образование, любовь к родине, высшее образование, квалифицированные кадры, студенты, молодежь, человек, общество, будущее.

**Kalit so‘zlar:** Ta’lim, vatanga muhabbat, oliy ta’lim, malakali kadrlar, talaba yoshlar, inson, jamiyat, kelajak.

Zamonaviy barkamol shaxsni shakllantirish respublikamizda bugungi kunda amalga oshirilayotgan barcha o‘zgarishlarning tub mohiyatini, ta’lim tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan ishlarimizning asosini tashkil etmoqda. mamlakatimizning gullab-yashnashini malakali kadrlarsiz tasavvur etish mumkin emas. Yosh avlodda ma’naviy qadriyatlarni, jumladan, Vatanga muhabbat va unga cheksiz sadoqat tuyg‘ularini tarbiyalash barchamizning birdek vazifamizdir. O‘qish davrida o‘g‘il-qizlar kasblar va mutaxassisliklar to‘g‘risida to‘liq tasavvurga ega bo‘lishlari muhimdir. Bu munosib kadrlarni etishtirish uchun juda ham kerak bo‘lgan jihatlardan biridir. Shuning uchun bugungi kunda talabalarning kasbga yo‘naltirilgan tayyorgarligiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Prezidentimizning 2020-yil 6-noyabrdagi "O‘zbekiston taraqqiyotining yangi davrida ta’lim va tarbiya, ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" gi Farmoni bilan mazkur yo‘nalishda qo‘yilgan vazifalardan kelib chiqib, quyidagilar belgilandi: 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab umumta’lim muassasalari bitiruvchilari tomonidan qobiliyat va qiziqishlarga mos kasb tanlash, ularni egallash uchun “kasbga

yo‘naltirish tizimi” joriy etildi. mehnat bozorida munosib o‘rin egallash va kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish. Ta’lim sohasidagi o‘z vaqtida amalga oshirilgan islohotlar nafaqat bitta sohada, balki butun davlatda katta yutuqlar garovidir. So‘nggi ikki yil ichida mamlakatdagi ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi bolalar bog‘chalaridan tortib universitetlarga qanchalik mustahkamlanganligi barchamiz guvohi bo‘lib turibmiz. Oliy ta’lim dargoxlarida professor-o‘qituvchilarning ilmiy salohiyati keyingi yillarda sezilarli darajada bir necha barobarga oshdi. Ta’lim sohasining barcha bo‘g‘inlarida zamon bilan hamnafas bo‘lib, ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etilmoqda. Zamonaviy oliy ta’lim dargoxlarini endilikda jihozlangan kompyuter sinflarisiz, qiziqarli interfaol darslarni o‘tkazish uchun gadjetlar bilan jihozlangan o‘quv xonalarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Sohadagi o‘zgarishlarga yondashuv, ko‘rib turganimizdek, murakkab, eng yaxshi amaliyotlar va ilg‘or xorijiy tajribalar ishtirok etadi. Shuni ta’kidlash kerakki, yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlashga katta ahamiyat berilmoqda.

Bugungi kunda ta’lim beruvchilarga qo‘yilayotgan asosiy talablardan biri bu doimiy ravishda o‘z ustida ishlab o‘zini takomillashtirish, malaka oshirish va yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘rganishdir. Chunki zamondan ortda qolmaslik bugungi kun talabasidan bir qadam oldin yurishi uchun o‘qituvchi ham tinimsiz o‘qishi o‘z ustida doimiy ishlashi kerak. Bu esa professor o‘qituvchilardan yoshlar bilan ishlashda yuqori fidoyilikni talab qiladi. Ta’lim va tarbiya muassasalari professor-o‘qituvchilari, shuningdek, fan sohasi vakillarining roli va nufuzini oshirish, ularning mashaqqatli mehnatiga munosib ehtirom ko‘rsatish davlatimiz rahbariyati tomonidan doimiy ravishda amalga oshirilmoqda. Ta’lim tizimi xodimlari uchun ularga yuklatilgan vazifalarni bajarish, xususan, yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda. Ta’lim sohasi oldida turgan muhim maqsadlardan biri iqtidorli yoshlar bilan ishlashning yagona va samarali tizimini yaratish, yosh avlodning iste’dodi va salohiyatini ro‘yobga chiqarish tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, ilg‘or xorijiy tajriba talablari asosida darsliklar va o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, shu jumladan elektron shaklda nashr etish, shuningdek, iqtidorli yoshlar bilan ishlash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar ko‘rishdir. Xalqaro maydonda mamlakatimiz manfaatlarini yuqori professional darajada munosib ifoda eta oladigan talab yuqori bo‘lgan mutaxassislar tayyorlanishini ta’minalash, iqtidorli yoshlarni aniqlash, tanlash, chet ellarning eng nufuzli oliy ta’lim muassalarida o‘qitish, yosh iste’dodlarni yanada qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ularning ilmiy faoliyatini boshqarish tizimini yaratish bo‘yicha ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishga qaratilgan ishlar katta ahamiyat kasb etdi. Muntazam ravishda olimlar, taniqli yozuvchi va shoirlarning mahorat darslari o‘tkazilib, ilg‘or zamonaviy texnikalar asosida darslar o‘tkazilmoqda. Talabalar ma’naviy rivojlanadi. Buning

uchun yosh yozuvchilar va jurnalistlarning jalb etilmoqda. Jismoniy madaniyat, ta’lim tarbiya keng ma’noda, insonning barcha tabiiy va ijtimoiy qobiliyatlarini ro‘yobga chiqaruvchi, uni tobora insoniyashtirib, ham jismoniy, ham ma’naviy chiniqtirib, yuksaltirib boruvchi jarayondir. Bu haqda professor Tilab Mahmudov: “Ta’limdan tobora uzoqlashib borgan sari kishi o‘z umriga o‘zi bolta uradi. Unda loqaydlik, soyaparvarlik, dangasalik, ishyoqmaslik, oqbilaklik, tekinxo‘rlik singari xunuklik alomatlari kuchayadi”<sup>1</sup>, – deb ta’kidlaydi. Ta’lim sifatini yanada oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonida qo‘yidagilar belgilab qo‘yildi:

oliy ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta’lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, sohada sog‘lom raqobat muhitini yaratish;

O‘zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalarining flagmaniga aylantirish;

respublikadagi kamida 10 ta oliy ta’lim muassasasini xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1000 ta o‘rindagi oliy ta’lim muassasalari ro‘yxatiga, shu jumladan O‘zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini birinchi 500 ta o‘rindagi oliy ta’lim muassasalari ro‘yxatiga kiritish;

oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modulb tizimiga o‘tkazish;

xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta’limning ilg‘or standartlarini joriy etish, jumladan o‘quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo‘naltirilgan ta’limdan amaliy ko‘nikmalarни shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish;

oliy ta’lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘shadigan, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish;

oliy ta’lim muassasalarining akademik mustaqilligini ta’minalash;

oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bog‘liqligini nazarda tutuvchi «Universitet 3.0» kontseptsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish;

<sup>1</sup> Mahmudov T. Komillik asrorlari. – T.: Adolat, 2006. – B. 82

xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish, pullik xizmatlar ko‘lamini kengaytirish va boshqa byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobiga oliy ta’lim muassasalarida texnopark, forsayt, texnologiyalar transferi, startap, akselerator markazlarini tashkil etish hamda ularni tegishli tarmoq, soha va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tadqiq qiluvchi va prognozlashtiruvchi ilmiy-amaliy muassasalar darajasiga olib chiqish;

oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilar, ilmiy izlanuvchilar, doktorantlari, bakalavriat va magistratura talabalarining yuqori impakt-faktorga ega nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda maqolalar chop etishi, maqolalarga iqtiboslik ko‘rsatkichlari oshishi, shuningdek respublika ilmiy jurnallarini xalqaro ilmiy-texnik ma’lumotlar bazasiga bosqichma-bosqich kiritilishini ta’minlash;

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimini Markaziy Osiyoda xalqaro ta’lim dasturlarini amalga oshiruvchi «xab»ga aylantirish;

oliy ta’limning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xorijiy ta’lim va ilm-fan texnologiyalarini jalb etish;

talaba-yoshlar ta’lim-tarbiyasi uchun qo‘srimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyatga tatbiq etish;

oliy ta’lim muassasalarining infratuzilmasi va moddiy-texnik bazasini, shu jumladan xalqaro moliya institutlarining imtiyozli mablag‘larini keng jalb qilish hisobiga yaxshilash, ularni bosqichma-bosqich o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazish va moliyaviy barqarorligini ta’minlash;

ta’limning ishlab chiqarish korxonalari va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorligini yo‘lga qo‘yish;

aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, shu jumladan imkoniyati cheklangan shaxslarning oliy ta’lim bilan qamrov darajasini oshirish, ular uchun infratuzilmaga oid sharoitlarni yaxshilash;

Kontseptsiya doirasida zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan yangi ta’lim standartlari va ta’lim dasturlari bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. So‘nggi olti yilda yurtimizda qo‘srimcha 500 ming o‘quvchi o‘rni yaratilib, ularning jami soni 5 million 300 mingga yetdi. Hozirgi vaqtda yana 1 million 200 ming o‘quvchi o‘rni yaratish bo‘yicha ishlar jadal davom ettirilmoqda. O‘zbekistonda yangi Uyg‘onish davri – Uchinchi Renessans poydevorini yaratish asosiy maqsad etib belgilangan. Shu ulug‘vor maqsad yo‘lida qabul qilingan Taraqqiyot strategiyasi doirasida 2023 yilga yurtimizda “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” deb nom berilgani juda muhim. Davlatimiz va jamiyatimiz, birinchi navbatda, e’tiborni Yangi O‘zbekiston uchun eng katta investitsiya bo‘lgan ta’limni qo‘llab-quvvatlashga qaratmoqda. Ta’lim sifatini oshirish – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkayu

yagona to‘g‘ri yo‘lidir.Davlatimiz rahbarining “Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi”<sup>2</sup> da bu borada oldimizda turgan eng asosiy vazifalar belgilab berildi.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida maktab yoshigacha bo‘lgan bolalarning umumiyl savodini chiqarish, bolalarda Vatanni sevish, u bilan g‘ururlanish hissini uyg‘otish, dunyoqarashini kengaytirishga, bog‘chalar sonini ko‘paytirish, ulardagagi ta’lim va tarbiya sifatini tubdan yaxshilash bo‘yicha besh yillik dastur qabul qilish hamda bog‘cha qamrovini kengaytirish bo‘yicha xususiy sektorga qo‘srimcha sharoitlar yaratish zarurligiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Maktab va oliy ta’lim o‘qituvchilarning maqomini, ularning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilishni konstitutsiyada alohida belgilash,boshlang‘ich sinflarda mutlaqo yangi metodika asosida yaratilgan darsliklar bo‘yicha o‘qitishni yo‘lga qo‘yish,o‘quvchilarda erkin va kreativ fikrlashni, jamoada ishlash va muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish zarur.ana o‘u yo‘nalishdagi ishlar Oliy ta’lim sohasidagi islohotlar izchil davom ettirilmoqda. "Yangi O‘zbekiston" gazetasining shu 2022 yil 13-sentyabr’ sonida Abdulla Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti rektori, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori Ayubxon Radjiyevning "Ta’lim sifatini oshirish strategiyasida kadrlar siyosati" <sup>3</sup>nomli maqolasi chop etildi.unda muallif

Har yili avgust oyining oxirida Davlat test markazi tomonidan navbatdagi o‘quv yili uchun oliy ta’lim muassasalariga qabul bo‘yicha o‘tkazilgan test sinovlari natijalari tahlili e’lon qilinadi. Abituriyentlarning test sinovlaridagi ko‘rsatkichlari to‘p langan ballarga qarab guruhanlib, 56 balldan past natija ko‘rsatganlar soni va ularning barcha abituriyentlarga nisbatan salmog‘i ko‘rsatiladi. Oxirgi yillarda mazkur ko‘rsatkich jami abituriyentlarning qariyb yarmini tashkil qilmoqda. Bu esa maktab bitiruvchilarining 50 foizi talab qilinadigan bilimning bor-yo‘g‘i yarmiga ega ekani, ya’ni maktablarimizda sifatli ta’lim berilmayotgani haqidagi mulohazalarga sabab bo‘ladi. Albatta, qabul imtihonlarida ishtirok etayotganlarning hammasi ham maktab bitiruvchilari emas, biroq salmoqli qismini joriy yoki undan oldingi yilda maktabni bitirganlar tashkil qiladi.

Oliy ta’lim muassasalariga qabul jarayonida abituriyentlarning past natija ko‘rsatishi maktablarimizdagi ta’lim sifatida ayrim muammolar borligini namoyon qiluvchi yagona holat emas. 2019-yili Sirdaryo viloyatida o‘tkazilgan o‘rganishlar jarayoniga jalb qilingan o‘qituvchilarning yarmidan ko‘pi o‘zi dars beradigan fandan qoniqarsiz natija ko‘rsatgan. Yomoni, mazkur o‘qituvchilarning o‘quvchilari ham tegishli fanlardan juda past ball to‘plagan.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 25yanvar Xalk so’zi.

<sup>3</sup> Radjiyev A. "Ta’lim sifatini oshirish strategiyasida kadrlar siyosati" "Yangi O‘zbekiston" 2022 yil 13-sentyabr

O‘zida yo‘q bilimni birovga berib bo‘lmaydi So‘nggi yillarda mamlakatimizdagi oliy o‘quv yurtlari soni 2,5 barobar ko‘paydi va 198 taga yetdi. Yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasi 9 foizdan 38 foizga oshdi. Eng asosiysi, raqamlar izidan quvish emas, balki ta’lim sifatini oshirishdir. Bu borada 41 ta oliygohga akademik va moliyaviy mustaqillik berildi. Endilikda ta’lim tarbiyaga bo‘lgan e’tibor yanada oshib borayotgan bir paytda yangi texnologiyalardan yangicha usullardan foydalanish har qachongidan ham ko‘ra kuchliroq dolzarblik kasb etmoqda. Ustozlar ular yordamida inson qalbini oljanobroq, jismini esa mukammalroq qiladilar”<sup>43</sup>. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlashimiz mumkinki, keyingi yillarda ta’limga berilayotgan e’tibor bu insonga, uning kelajagiga, jamiyatimizning kelajak poydevoriga berilayotgan e’tibordir. Bu yo‘lda biz professor-o‘qituvchilar qo‘limizdan keladigan barcha ezgu ishlarimizni amalga oshirishimiz davr talabidir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

- 1.Mahmudov T. Komillik asrorlari. – T.: Adolat, 2006. – B. 82.
- 2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 25yanvar Xalk so‘zi.
- 3.Radjiyev A. “Ta’lim sifatini oshirish strategiyasida kadrlar siyosati” "Yangi O‘zbekiston" 2022 yil 13-sentyabr
- 4.E.Ernazarov. Olimpiada jahon sporti bayrami.T.Sharq matbaa-kontserni. 2008 yil.26-bet.
- 5.Маманов, Ж. А., & Розиков, Ж. М. (2021). Миллий менталитетнинг ёшлар маданиятига таъсири. Academic research in educational sciences, 2(Special Issue 1), 170-178.
- 6.Маманов, Ж. А. (2018). Ёшлар маънавий маданиятига таҳдид ёки мессионерликнинг салбий оқибатлари. ЎзМУ хабарномаси, 169.
7. Маманов, Ж. А. (2018). МАЪНАВИЙ ТАРБИЯ ТАКОМИЛИДА СПОРТ ВА АХЛОКИЙ МАДАНИЯТНИ УЙФУНЛАШТИРИШ МАСАЛАСИ. Fan-Sportga, (3), 74-78.
8. Маманов, Ж. А., & Хушвақтов, З. Р. (2022). МИЛЛИЙ МЕНТАЛИТЕТ (МЕХАНИЗМИ) ВОСИТАСИДА ЁШЛАР МАЪНАВИЙ МАДАНИЯТИНИ ЮКСАЛТИРИШНИНГ МИЛЛИЙ ВА УМУМИСОНИЙ ТАМОЙИЛЛАРИ. Educational Research in Universal Sciences, 1(6), 9-13.
- 9.Маманов, Ж. А. (2020). Young people are increasing a spiritual culture place of national mentality. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 3203.
- 10.Маманов, Ж., & Турғунов, Т. (2022). МИЛЛИЙ МЕНТАЛИТЕТ АСОСИДА ЁШЛАР МАДАНИЯТИНИ ЮКСАЛТИРИШНИНГ МИЛЛИЙ ВА УМУМИСОНИЙ ТАМОЙИЛЛАРИ. Educational Research in Universal Sciences, 1(7), 520-528.

<sup>4</sup> E.Ernazarov. Olimpiada jahon sporti bayrami.T.Sharq matbaa-kontserni. 2008 yil.26-bet